

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
Namangan muhandislik-texnologiya instituti  
«Yengil sanoat texnologiyasi» fakulteti

Himoyaga ruxsat etildi:  
fakul tet dekani

Kafedra mudiri,  
Dotsent I.R.Azizov

dots. U.X.Meliboev

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2015 yil

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2015 yil

5320900 -"Engil sanoat mahsulotlarini konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi"  
(to'qimachilik sanoati) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi

**Xasanboev Xikmatillo Ubaydullo o'g'lining**

«“Opolye” nomli ko'ylakli mato ishlab chiqarishni takomillashgan texnologiyasini  
loyihalash» **mavzusidagi**

## **BITIRUV MALAKA IShI**

Bajardi:

X.Xasanboev

Rahbar:

dotsent D.Aliyeva

Maslahatchilar:

dotsent D.Aliyeva

Katta o'qit. A.Akramov

Namangan - 2015 y.

# NAMANGAN MUHANDISLIK- TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI» fakulteti  
«To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi» kafedrasida

«Tasdiqlayman»

Kafedra mudiri, dotsent

I.R.Azizov

«\_\_»\_\_\_\_\_ 2014 yil

5320900 -"Engil sanoat mahsulotlarini konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi"  
(to'qimachilik sanoati ta'lim yo`nalishi bo'yicha bitiruvchi 4au-11 guruhi talabasi

## **Xasanboev Xikmatillo Ubaydullo o`g`lining**

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha topshiriq

1. Bitiruv ishining mavzusi: « "Opolye" nomli ko'ylakli mato ishlab chiqarishni takomillashgan texnologiyasini loyihalash.»

«\_\_»\_\_\_\_\_ 2014 y. Kafedra majlisida ma`qullangan.

Bitiruv ishni topshirish muddati : iyun 2015 yil

2. Bitiruv ishni bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar:

To'qimani to'la taxtlash ko'rsatkichlari

3. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar)

Kirish.

Texnologik qism.\_\_\_\_\_.

Mexnat muxofazasi.\_\_\_\_\_

Tashkiliy-iqtisodiy qism .\_\_\_\_\_

Xulosa va tavsiyalar.\_\_\_\_\_

4. Chizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi).

To'qimani taxtlash ko'rsatkichlari.

Texnologik jarayon jixozlari.

Texnologik jixozlarni joylashtirish.

O'ram xisobini jadvali.

Korxonani tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

## 5. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi F. i. sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Ko'yilakbop matolarni assortimentini to'qish	D.Aliyeva		
2	<u>Texnologik qism</u>	D.Aliyeva		
3	To'qimani texnik xisobi	D.Aliyeva		
4	Mexnat muxofazasi	A.Akramov		
5	Tashkiliy-iqtisodiy qism	D.Aliyeva		
6	Xulosa va tavsiyalar	D.Aliyeva		

topshiriqlar to'liq bajarildi \_\_\_\_\_

## 6. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1.	Kirish	Dekabr 2014 yil	
2	To'qimani texnik xisobi	Yanvar 2015 yil	
3	Tayyorlov bo'limi mashina dastgoxlari muvofiqligi	Mart 2015yil	
4	Mexnat muxofazasi	May 2015 yil	
5	Tashkiliy-iqtisodiy qism	May 2015 yil	
	Xulosa va tavsiyalar		

Bitiruv ishi rahbari \_\_\_\_\_

Topshiriqni bajarishga oldim \_\_\_\_\_

Topshiriq berilgan sana \_\_\_\_\_ «\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 y

Himoyaga ruxsat \_\_\_\_\_ 2015 yil

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_

## Mundarija.

Kirish.....	5
1 Ko`ylakbop matolarni assortimentini to`qish.....	8
1. Ko`ylakbop matolarni to`qish uchun zamonaviy texnologiya .....	9
2 Matoni texnologik xisobi.....	12
1. Yigiruv sistemasi.....	13
2. To`qima tarifi.....	14
3. To`quv dastgoxini turi va ishchi kengligini tanlash.....	16
4. To`qimani taxtlash xisobi.....	18
5. To`quv korxonasini texnologik jarayon va uskunalarni tanlash va asoslash.....	23
6. Ip o`ramlarini xisoblash va asoslash.....	33
7. Texnologik jarayoning chiqindilar xisobi.....	41
8. Tanlangan mashina va dastgoxlarni tezligi va ish unumdorligi xisobi.....	45
9. O`tish jarayonlari bo`yicha yarim maxsulotlarning chiqish foizi xisobi.....	49
10. Tayyorlov bo`limi mashina dastgoxlari muvofiqligi.....	50
11. Xom ashyo ombor xisobi.....	50
3 Mexnat muxofazasi.....	54
4 Tashkiliy-iqtisodiy qism.....	62
1. Ishlab chiqarishning o`timlar bo`yicha chiqindini taqsimlanishi.....	62
2. Xom ashyo balansi.....	63
3. Korxonada ishchilar sonini aniqlash(to`quv korxonasi).....	64
4. Tugallanmagan ishlab chiqarish.....	66
5. Elektro- energiya xisobi.....	68
5 Korxonaning tashkiliy texnologik ko`rsatkichlari.....	69
Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	70
Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.....	71
Ilova.....	72

## Kirish.

2015 yil 16 yanvarda utkazilgan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga muljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2015 yilga va keyingi yillarda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirishning strategik vazifalari belgilab berildi.

Yangi tarkibdagi hukumatning asosiy e'tibori qaratilashi lozim bo'lgan vazifalarning mazmun-mohiyati va ularni amalgam oshirish mexanizmlari chuqur ochib berildi. Jumladan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlarni, sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va faol diversifikatsiya qilishni amalga oshirish doirasida- sanoatni yanada rivojlantirish va uning raqobatdoshligini oshirishni taminlaydigan dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Xususan 2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish ,modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni taminlash chora-tadbirlar dasturini tayyorlash doirasida jami qiymati 38 milliard dollorga teng bo'lgan 870ta yirik invetsitsiya loyihasi ro'yxati shakllantirildi.

Ushbu loyihalarga binoan 415ta yangi korxonalar barpo yetish hamda 455ta yangilash nazarda tutilmoqda.

Dasturning printsiptal tarzda ajratib turadigan jihati shundaki,eksportga mo'ljalangan, ichki va tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lgan mahsulot turlarini aniqlash va yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini jadal rivojlantirishga asosiy etibor qaratilgan.

Bular jumlasiga tayyor to'qimachilik buymlari va yarim tayyor mahsulotlar, polimerlar va uglevodorlarni chuqur qayta ishlash orqali olinadigan boshqa mahsulotlar, elektr-maishiy va elektron tovarlar, maishiy kimyo tovarlari, zamonaviy qurilish va pardozlash materiallarni, charm-poyabzal ,oziq-ovqat va farmataevtika sanoati mahsulotlari kiradi.

To'qimachilik sanoatida eksportbob raqobatdosh maxsulotlar tayyorlashga yo'naltirilgan,yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo'lgan yangi,zamonaviy to'qimachilik komplekslarni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etish zarur.

Bu, o'z navbatida, paxta tolasini o'zimizda qayta ishlash hajmini ikki barobardan ko'proq, kalava ishlab chiqarishni 2,6 barobar, tayyor trikotaj va tikuvchilik buymlarini 3 barovar , to'qimachilik sanoati maxsulotlari eksportini 2 barobar oshirishni ta'minlaydi.Yuksak texnologiyalar sohasidagi loyihalarni amalgam oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bu loyixalar sintetik suyuq yogilg'i ishlab chiqarishni tashkil qilish,poli etilen va polipropilen maxsulotlar, suyultirilgan va siqilgan tabiiy gaz ishlab chiqarish bo'yicha yangi,zamonaviy gaz-kimyó komplekslarni barpo etish, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida mineral o'g'itlar hamda yangi turdagi kimyoviy maxsulotlar ishlab chiqarish,eskirgan uskunalarni zamonaviy bug'-gaz qurilmalari bilan almashtirish hisobidan energetika tarmog'ini jadal rivojlantirish kabi sohalarni qamrab oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi.

**Mavzuni dolzarbligi.** Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodoyoti sharoitda to'qimachilik korhonalari oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sifatla, raqobatbardosh va haridorgir gazlamalar ishlab shiqarishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimizda paxta tolasidan yigirilgan iplardan ko'yilakbop gazlamalarni aralash o'rilishida enli mato tayorlash ilg'or texnologiyasini joriy etish maqsadini bajarganmiz.

Paxta tolasi Respublikamizda asosiy to'qimachilik xom-ashyosi hisoblanadi.Paxta tolali to'qimalar dunyo aholisining eng ko'p foydalanadigan matolari turkumiga kiradi.Bu matolar asosan kiyim-kechak va mayishiy maqsadlarda ishlatiladi. Aralash orilishidagi ko'yilakbop matoning asosiy xossalaridan biri uning havo-o'tkazuvchanligi va gigienik sifatida yaxshiligi. Aralash orilishidagi ko'yilakbop mato asosan ko'proq paxta tolasidan ishlab

chiqariladi. Aksariyat hollarda xorijdan keltirilgan gazlamalar tarkibida kimyoviy tolalar ulushining ko'pligi kuzatiladi. Xozirgi zamonda enli matolarga talab oshib bormoqda, bu talabni qondirish uchun to'qimachilik korxonalarida zamonaviy enli to'quv dastgoxlarida ishlab chiqarish zarur. Shuningdek to'quv fabrikalarida tayyorlov bo'limlarida zamonaviy dastgoxlar va mashinalarni jalb etish kerak.

Bitiruv malakaviy ishimizda ko'yilakbop gazlamalarni aralash o'rilishida enli mato tayorlash ilg'or texnologiyasini uchun, to'quv korxonasida tayyorlov va to'quv tsexlarida enli zamonaviy Shveytsariyaning "Beninger" firmasini tandalash, oxorlash mashinalari va Italiyani Wamatex to'quv dastgoxilari qo'llanildi. Yuqoridagi talablarni bajarish uchun, ilg'or texnologiyani joriy etish natijasida turli tabiiy, kimyoviy, bo'yalgan iplardan eni-160sm bo'lgan turli o'rilishidagi ko'yilakbop gazlamalarni ishlab chiqarish mumkin.

## **I.Ko`yilakbop matolarni assortimentini to`qish.**

To`kuvchilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan gazlama turlari ichida ip gazlamalari aloxida o`rin egalaydi. Ularning asosiy qismi klassik paxta tolasidan ishlab chiqarilgan turlari tashkil qiladi. Xar yil ishlab chiqariladigan paxta tolalari gazlamalarning (ip gazlamalari) 10-12% yangi tuzilishdagi va parzolanishdagi gazlamalar xisobiga o`zgaradi.

Ip gazlamalari karda yigirish, qayta tarash yoki apparat usulida olingan turli tuzilishdagi (yakka, pishitilgan, shakldor, aralash tolali va xokozo) va chiziqli zichligi 5,88 dan 263,2 teksgacha bo`lgan iplardan ishlab chiqariladi.

Ip gazlamalari turli rangda, shaklda va o`lchamga gul bosilgan, sidirg`a rangli, oqartirilgan, chipor va oqatirilmagan xom xolda ishlab chiqariladi. SHu jumladan, maxsus pardoqlashlar xam qo`llaniladi.

Ip gazlamalarni turli maqsadlar uchun ishlatiladi: ichki kiyim, erkaklar ayollar va bolalar ko`yilaklari, kundalik, maxsus va sport ko`yilaklari, astardan, pardalik va xokozolar sifatida. Ip gazlamalari turmushga zarur gazlamalar, chunki ular ijobiy gigenik xosalarga (gigroskopikligi, xavo o`tkazuvchanligi va x.k) ega, tashki ko`rinishi chiroyli, mustaxkamligi, turli deformatsiyalar ta`siriga chidamligi yuqori yengil yuviladi, tez quriydi, yaxshi dazmolanadi

Keng tarqalgan ip gazlamalarning tavsiflari. Amaliy preysko`urantda turmushda va texnikada ishlatuvchi 1300 dan ortiq artikuldagi ip gazlamalar kiritilgan bo`lib ular 17 guruxga ajratilgan. Bulardan eng keng ishlatiladiganlari 1-6 guruxlani tashkil qiladi. Shularni ichidan beshinchi gurux - ko`yilakbop gazlamalar kiradi. Ip gazlamalarning assortimentida bu gurux asosiy, eng kata va ko`p xildagi gazlamalardan iborat. U to`rtga bo`linadi. A) yozgi, b) mavsumiy, d) qishki, suniy ipak qo`shib ishlab chiqariladi.

Ko`yilakbop gazlamalarni kata qismi karda yigirishda olingan yakka va pishitilgan iplardan ishlab chiqariladi. Eng sifatli gazlamalarda esa yo`nalishlarning birlarida yoki ikkalasida qayta tarash usulida olingan iplar, ba`zi gazlamalarda shakldor iplar xam ishlatiladi. Gazlamalarning tashqi ko`rinishi va xususiyatlarini yaxshilash uchun paxta ipiga kimyoviy tola yoki

iplar qo`shiladi, mayda guli o`rilishlar ko`llaniladi, pardoqlashda maxsus ishlov beriladi.

Yozgi gazlamalar jumlasida yupqa, yengil, xavo o`tkazuvchanligi yuqori bo`lgan batist, markizet, mayi, volta, vual, kiseya gazlamalar kiradi.

Batist – juda mayin, yupqa, ishqorli ishlov berilgan, polotno o`rilishidagi gazlama. U Oqartirilgan, ochiq ranga sidirg`a bo`yalgan, tagi oq rangda mayda guli qilib pardoqlangan xolda ishlab chiqariladi. Uning yuza zichligi  $68-75 \text{ g/m}^2$ , eni 80 sm, ishlab chiqarish uchun qo`llanilgan ipning yo`g`onligi qayta tarash usulida olingan tanda iplari buyicha 10 teksli, arqoq iplari buyicha 8,5 tekslidir.

Safari matosi -qayta tarash usuli bilan olingan, yugonligi  $15,4 \times 2$  teksli ikki kavatlab pishirilgan iplardan reps o`rilishida ishlab chikariladi. Yuza zichligi  $205 \text{ g/m}^2$ , eni 80-130 sm.

### **1. Ko`yilakbop matolarni to`qish uchun zamonaviy texnologiya.**

To`qimachilik sanoatida eksportbob raqobatdosh maxsulotlar tayyorlashga yo`naltirilgan, yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo`lgan yangi, zamonaviy to`qimachilik komplekslarni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etish zarur.

To`quvchilik jarayonida zamonaviy texnologiyani qo`llashda albata ipni tarkibi, xossalari, undan to`qiladigan matoni o`rilishi, texnologik parametrlari xisobga olinishi kerak.

Xozirgi vaqtda to`quv korxonalarida tayorlov va to`quv tsexlarida turli zamonaviy texnologiyalar ko`lanilmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilashga qaratilgan. Korxonalarda SP rusumidagi guruhlab tandalash mashinalari keng tarqalgan. Undan tashqari «Barber Kolman» (AQSh), «Kovo» (Chexiya), «Schlafhorst» (Germaniya), «Beninger» (Shveytsariya) firmalarining tandalash mashinalaridan ham keng foydalaniladi. Sanoatda ShL-288-Sh romlari bilan jihozlangan ShL-250-Sh va «Tekstima» piltalab tandalash mashinalari keng tarqalgan. ShL-250-Sh tandalash mashinasi, asosan, paxta va jun iplarini krestitsimon o`ramli konus bobinalardan tandalash uchun mo`ljallangan.

Hozirgi kunda barabanli oxorlash mashinalari ko'proq ishlatilmoqda. Ranglangan iplarni ,jundan bo'lgan iplarni oxorlash uchun kamerali oxorlash mashinalari ko'llanilmoqda. Ishlatilayotgan ShB-11/140, ShB-11/180 oxorlash mashinalari bilan bir vaqt, xozir zamonaviy «Beninger» (Shveytsariya), „Zukker”(Germaniyani) firmalarining oxorlash mashinalaridan ham keng foydalaniladi.

Ip o'tkazish avtomatlaridan PS, PSM, „Barber-Kolman”(AQSh), «Beninger» (Shveytsariya) firmalarining avtomatlaridan ham keng foydalaniladi. Ip bog'lash UP-5, UP-2M, (Germaniya) AWA-2, „Klofeks-Mashinenbau” ,(Daniyaning) „Oskar-Fisher” firmani mashinalarini o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Zamonaviy to'quv dastgohlarini quyidagi belgilar bo'yicha tasniflash mumkin:

Arqoq tashlash usuli bo'yicha dastgohlar mokili va mokisiz usullarga bo'linadi. Mokisiz to'quv dastgohlariga mitti mokili, rapirali ,gidravlik, havoli va havo- rapirali dastgohlar kiradi. Arqoq tashlash usuli dastgohlarni belgilovchi asosiy ko'rsatgichdir.

Xomuza hosil qiluvchi mexanizmlarni tuzilishiga qarab, to'quv dastgohlari kulachokli, karetkali va jakkardli dastgohlarga bo'linadi. Kulachokli homuza hosil qiluvchi mexanizimli dastgohlarda asosan oddiy o'rilishli to'qimalar to'qish mumkin. Karetkali dastgohlarda esa 12-24 tagacha shodalar mavjud bo'lib, shularga mos to'qimalar ishlab chiqarish mumkin. Jakkard mashinali dastgohlarda esa har qanday naqshli(gulli) to'qimalar olish mumkin.

Batan mexanizmining tuzulishiga qarab dastgohlar umumiy, sektsiyali, nuqtali, rotatsion va tebranma arqoq jipslashtirish mexanizimli dastgohlarga bo'linadi.

Zarb mexanizmining tuzilishiga qarab dastgohlar ketma-ket va ixtiyoriy zarbli dastgohlarga bo'linadi. Bir vaqtda ishlatiladigan arqoqlarga qarab dastgohlar bir rangli va ko'p rangli dastgohlarga bo'linadi. Ko'p rangli arqoq almashtirish mexanizmini qo'llash, to'qima turlarini ko'paytirishga imkon beradi.

To'qimadagi iplarni turiga qarab paxta, jun, ipak, zig'ir, metal, shisha va boshqa to'qimalarni ishlab chiqarishga moslashgan to'quv dastgohlari ishlab chiqariladi. Ayrim rivojlangan firmalar ko'plab barcha turdagi iplardan to'qima olish imkoniyatiga ega universal to'quv dastgohlarini ishlab chiqarmoqda.

Ishlab chiqarilgan to'qimadan foydalanishga qarab dastgohlar oddiy va maxsus to'qima ishlab chiqaruvchi dastgohlarga bo'linadi. Ishlab chiqarilayotgan to'kimani eniga qarab dastgohlar ensiz va enli dastgohlarga bo'linadi, lekin bu shartli ko'rsatkich bo'lib, hozirda maksimal taxtlash eni 2 m dan ortig' bo'lgan dastgohlar enli dastgohlar deb qabul qilingan.

Yuqoridagi asosiy mexanizmlardan tashqari to'quv dastgohlariga ogohlantiruvchi, arqoq ipini avtomat almashtiruvchi va boshqa yordamchi mexanizmlar ham o'rnatiladi.

Zamonaviy to'quv dastgohlarida bu mexanizmlarni ishlashini boshqarish uchun mikroprotessorlardan foydalanilib, ularga xizmat ko'rsatish tobora kamayib bormoqda. Mikroprotessorlardan to'quv dastgohlarida foydalanish ularning aniq ishlashini ta'minlaydi.

Dunyoda 60ga yaqin firmalar mokisiz to'quv dastgohlar ishlab chiqaradi. Mikromokili to'quv dastgohlari bu STB, "Zulzer", "Zulzer Ruti" (Shvetsariya), "Novostav" (Chexiya) firmalarining dastgohlari kiradi. Bundan tashqari Dreper (AQSh), Omita S. (Italiya), Eliteks (Chexiya) firmalari xam mikromokili dastgohlar ishlab chiqaradi. Xozirgi vaqtda rapilari to'quv dastgohlari keng ko'lanilmoqda, chunki ushbu to'quv dastgohlarda yupqa va murakab to'qimalar to'qish imkoniyatiga ega. Sulardan biri Italiyani TEXITA firmasini Wamatex to'quv dastgoxi. Rapirali to'quv dastgoxi ishchi eni 170 dan 380 sm. gacha. Dastgoxni tezligi 1100 m/min. ga ega. Tabiiy, kimyoviy bo'yalgan va ikkilamchi xom-ashyodan olingan iplarni ishlatish imkoniga ega. Rangli 8 gacha arqoq iplarini ishlatish mumkin. Italiyani "WAMATEX" rusumli dastgoxi ham elastik rapira yordamida arqoq ipini homuzaga tashlaydi. Karetkali va jakkard homuza hosil qilish mexanizmlari bilan jihozlanish imkoniyatiga ega. Tanda iplarini taranglab uzatish mexanizmi "Xanta" rostlagichidir.

## II. Matoni texnologik xisobi.

### 1.Yigiruv tizimi.

**Tanda ipi.**Qayta tarash yigirish tizimi.Yigirish tizimalari va qabul qilinadigan mashinalarni tanlashda bir qator umumiy va aniq talablari xisobga olindi.

1. Imkoni boricha texnologik bosqichlar qisqartirildi.

2. Titish va tozalash jarayonlarini tashkil qilishda tolaning tabiiy fizik-mexanik xossalari yomonlashmasligi va mashinalar ishchi organlarining toлага tasirini kamaytirish maqsadida ishchi a'zolarinig tezligi me'yorida tanlandi.

3. Tanlab olingan mashinalar majmi olinadigan yarim maxsulotlar va ipning bir tekis bo'lishini ta'minlashi nazarda tutildi.

4. Yigirish texnologik jarayonlarini loyihalashda tarash jarayoning ahamiyati judda katta. Shuning uchun xorijiy firmalar universal tarash mashinalarini taklif etganlari inobatga olindi.Bundan tashqari Respublikadagi qo'shma korxonalar tajribasiga tayandim.

5. Yigirish rejalarini ishlab chiqishda yigirish uculini tanlashga katta etibor qaratdim.

№	Texnologik jarayondagi jixozlar.	Loyixada qabul qildim.
1	Avtomatik toy titgich	Blendomat BO-A
2	Ko'p funktsiyali ajratgich (separator)	SP-MF
3	Dastlabki tituvchi tozalovchi mashina	CL-P
4	Kamerali tola aralashtirgich.	MX-U
5	Tozalovchi CLEANOMAT	Cleanomat CL-U
6	Changdan tozalagich	SP-FPU
7	Tarash mashinasi.	TC-11
8	Piltalash mashinasi.	TD-7
9	Piltalash mashinasi	TD-8
10	Pnevmomexanik yigiruv mashinasi	R40
11	Qo'shish mashinasi	DONXING DX321E
12	Pishitish mashinasi	DONXING DX321G

**Arqoq ipi.** Karda yigirish tizimida asosan urta tolali paxtadan chizikli zichligi  $t=15,4\div 50$  teks ( $Nm=20\div 65$ ) bulgan iplar ishlab chikariladi. Ushbu ishlab

chiqarilgan iplardan surp, satin, chit kabi bejirim matolar xamda trikotaj buyumlari tayyorlanadi.

Karda ip yigirish tizimida talaganda,yigiriladigan ipga qo'yilgan talablarga qarab, yigirish o'timlari, usullari aniqlandi.

Mashinalarni tanlashda xozirgi zamondagi fabrikalarda qo'llanadigan o'ramlar (g'altaklar) o'lchami katta bo'lishi ham nazarda tutiladi. Shunday qilinmasa, mexnat unumdorligi past bo'ladi. Shu bilan birga , shunday mexanizm va moslamalarni qilindiki, ularni qo'llash natijasida mehnat sharoiti yaxshilandi va mashinalarning ish unumdorligi yuqori bo'lishligi e'tiborga olindi.

Bitiruv malakaviy ishimizda Olmoniyaning «Trutzschler» firmasining tolalarga katta zarbiy kuch bermasdan toy titish va tolalarni nuqsonlardan tozalashning bir necha bosqichli jixozlaridan foydalanildi.

№	Texnologik jarayondagi jixozlar	Loyixada qabul qilingani
1	Avtomatik toy titgich	BO-A
2	Ko'p funktsiyali ajratgich (separator)	SP-MF
3	Dastlabki tituvchi tozalovchi mashina	CL-P
4	6 kamrtali tola aralashtirgich	MXU
5	tozalivchi CLEANOMAT	CL-C3
6	Changdan tozalagich	SP-FP
7	Tarash mashinasi	TC-11
8	Piltalash mashinasi	TD-7
9	Qayta tarashga tayorlash mashinasi	TSL-1
10	Qayta tarash mashinasi	TCO-1
11	Piltalash mashinasi	TD-8-600 AUTO DRAFT
12	Pilik tayorlash Oerlikon-chlafhorst Roving frame	Zinser 670 RoWeMat
13	Yigirush mashinasi Oerlikon-schlafhorst	Zinser 451
14	Qayta o'rash mashinasi Oerlikon-schlafhorst	Autoconer 5

## **2.To'qima tarifi.**

Turli to'qimalarni biror bir xususiyati bo'yicha yigindisi – assortiment deiladi.Bunda xar bir gurux kichik guruxga bo'linadi, ular esa turi bo'icha artikullarga.Artikul – bu to'qimani nomeri yoki shartli belgisi , boshqa to'qimalardan xossasi yoki tuzilishi bo'icha farqlanishi.

Ko'yilakbop gazlamalarni kata qismi karda yigirishda olingan yakka va pishitilgan iplardan ishlab chiqariladi. Eng sifatli gazlamalarda esa yo`nalishlarning birlarida yoki ikkalasida qayta tarash usulida olingan iplar , ba'zi gazlamalarda shakldor iplar xam ishlatiladi. Gazlamalarning tashqi ko`rinishi va xususiyatlarini yaxshilash uchun paxta ipiga kimyoviy tola yoki iplar qo`shiladi, mayda guli o`rilishlar ko`llaniladi, pardoqlashda maxsus ishlov beriladi.

Safari matosi -qayta tarash usuli bilan olingan, yugonligi 15,4x2 teksli ikki kavatlab pishitilgan iplardan reps o`rilishida ishlab chikariladi. Yuza zichligi 205 g/m<sup>2</sup> , eni 80-130 sm.

To'qimani to'la taxtlash ko'rsatkichlari.

To'qimani nomlanishi	Artikulni nomi	To'kimani eni,cm	Iplari chiziqiy zichligi,teks			Iplar soni		10 sm.to'qimani iplar soni	
			T <sub>t</sub>	T <sub>a</sub>	T <sub>qir.</sub>	xammasi	Shundan qirg'og' iplari	R <sub>t</sub>	R <sub>a</sub>
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
"Opele" guly mato	1284	101,5	15,4x2	36	15,4x2	2156		212	172

Iplarni qisqarishi,%		Berdo			O'rilish	To'quv dastgox turi	To'qimani yuza zichligi gr/m <sup>2</sup>	Chiqindi miqdori,%		100pog.m.xom to'qima uchun ishlatiladigan pryaja, kg.chiqindisiz	
								tanda	arqoq	tanda	arqoq
A <sub>t</sub>	A <sub>a</sub>	Nomer	fon	qirg'oq							
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
9,1	5,7	100	2	2	aralash	STB	147	1,90	0,16	7,38	6,881



$$K_{Tt} = \frac{P_t(R_t \times d_t + r_A \times d_A)}{R_t \times 10} = \frac{21,2(10 * 0,217 + 21 * 0,237)}{10 * 10} = 7,575$$

B) To'qimani arqoq iplari bilan tuldirish koeffitsenti.

$$K_{TA} = \frac{P_A \times (R_A \times d_A + r_t \times d_t)}{R_A \times 10} = \frac{17,2(5 * 0,237 + 16 * 0,217)}{5 * 10} = 1,602$$

Pt P<sub>A</sub> – to'qimani tanda va arqoq bo'yicha zichligi, ip/sm

P<sub>t</sub> R<sub>A</sub> – to'qimani tanda va arqoq buyicha rapporti, ip/sm

D<sub>t</sub> d<sub>A</sub> – tanda va arqoq ipi diametri, mm.

r<sub>t</sub> – o'rilish rapportida tanda ipini to'qimani bir tomonidan ikkinchi tomoniga o'tish soni (1 ta ip oralig'ida)

r<sub>A</sub> – o'rilish rapportida arqoq ipini to'qimani bir tomonidan ikkinchi tomonga o'tish soni (1 ta ip oraligida).

Ip diametri ushbu formula bilan aniqlandi.

$$dm = 0.0316 \times C \sqrt{T_t} = 0,0316 * 1,24 \sqrt{15,4} * 2 = 0,217$$

$$da = 0.0316 \times C \sqrt{T_a} = 0,0316 * 1,25 \sqrt{36} = 0,237$$

C– ip turiga bog'lik bo'lgan doimiy koefficient.

Masalan: paxta tolalari uchun C=1,23 ÷ 1,26

T<sub>t</sub>, T<sub>a</sub> – ipni chizikli zichligi, teks.

V) To'qimani tolali materiallar bilan tuldirish koeffitsenti.

$$K_{to'q} = K_{Tt} \times K_{TA} = 7,575 * 1,602 = 12,135$$

K<sub>Tt</sub> -o'qimani tanda iplari bilan tuldirish koeffitsenti.

K<sub>TA</sub> -to'qimani arqoq iplari bilan tuldirish koeffitsenti

### To'quv dastgoxini ishchi kengligini tanlash.

To'quv dastgoxida to'qilgan xom to'qima kengligi shunday bulishi kerakki, pardoqlash jarayonidan so'ng olinadigan davlat standart talablariga javob beradign «Tayyor to'qima kengligi» ga mos kelishi shart.

«Tayyor to'qimalar kengligi» davlat standartlari quyidagilardir:

1. Paxta tolasidan ishlab chikiladigan to'qimalar uchun GOST–9205–76
2. Shoyi va yarim shoyi to'qimalar uchun GOST – 9202 – 82
3. Jun va yarim junli to'qimalar uchun GOST – 9204 – 76

Xom to'qima kengligi tanlashda dastgox ishchi kengligidan to'liq foydalanish kerak.

1. To'quv dastgoxini ishchi kengligini tanlash

A) Xom to'qimani pardoqlash jarayonida qisqarishi (eni bo'yicha)

$$U_y = \frac{B_x - B_T}{B_x} \times 100 [\%] = \frac{105 - 101,5}{105} * 100 = 3,33$$

$B_x$  – xom to'qima kengligi, sm (fabrika buyicha yoki qo'llanma bo'yicha qabul qilinadi).

$B_t$  – tayyor to'qima kengligi, sm (fabrika buyicha yoki qo'llanma bo'yicha qabul qilinadi).

$U_u$  – ni fabrika yoki qo'llanma bo'yicha tanlab olish xam mumkin.

2. GOST bo'yicha tayyor to'qima kengligini tanlash,  $B_T=160$

3. Pardozlash jarayonidan so'ng xosil bo'ladigan tayyor to'qima kengligiga mos keladigan xom to'qima kengligini xisoblash.

$$B_x = \frac{B_T}{(1 - 0.01 \times U_y)} [s.M] = \frac{160}{(1 - 0,01 * 3,33)} = 165,46$$

4. Tandani tig' bo'yicha kengligini xisoblash.

$$B_{t.o} = \frac{B_x}{(1 - 0.01 \times a_A)} [s.M] = \frac{165,46}{(1 - 0,01 * 5,7)} = 175,461$$

$a_A$  – to'quv dastgoxida xosil bo'lgan to'qimadagi arqoq ipini kirishishi. (qo'llanmadan yoki quyidagi formuladan xisoblash mumkin).

$$a_A = \frac{B_{t.o} - B_x}{B_{t.b}^1} 100\% = \frac{175,461 - 165,46}{175,461} 100\% = 5,699$$

$B_{t.b}^1$  – tandani tig' bo'yicha kengligi, sm

$B_x^1$  – xom to'qima kengligi, sm

$B_{t.b}$  – ni xisoblab chiqilgandan so'ng to'quv dastgoxi ishchi kengligiga taqqoslanadi, ya'ni

$$B_{t.b} < B_{ish} \quad 175,461 < 180,00$$

$B_{t.b}$  bilan  $B_{ish}$  orasidagi farq katta bo'lmasligi kerak

#### 4. To'qimani taxtlash xisobi.

1. To'qimani urtasi va kirgogi kengligini xisoblang.

A) To'qima o'rtasi kengligi.

$$B_{o.r} = B_x - B_{qir} s[M] = 165,46 - 2,0 = 163,46$$

B) To'qima qirgogi kengligi

$$B_{qir} = \frac{n_{qir}}{P_{qir}} [s.M] = 2,0$$

$n_{qir}$  – qirg'oq iplari soni

$P_{qir}$  – qirg'oq iplari zichligi  $[un/cm]$

Mokili to'quv dastgoxlari uchun qirgoq zichligi quyidagicha:

Agar  $T_{qir} > T_{o'r}$  bo'lsa  $R_{qir} = R_{o'r}$  teng bo'ladi

$$T_{qir} = T_{o'r} \quad R_{qir} = 2 R_{o'r}$$

Mokisiz to'quv dastgoxlarida to'qima qirg'og'i zichligi to'qima o'rtasi zichligiga teng, ya'ni  $R_{qir} = R_{o'r}$  yoki to'qima qirg'og'i zichligi o'rtasi zichligidan kam bo'ladi, bunga sabab to'qimadagi arqoq zichligi to'qima qirg'og'ida ikki barobar ko'p bo'ladi. (o'rtasiga nisbatan).

STB dastgoxi uchun :  $V_{qir} = 3,0(sm)$  ga teng

ATPR dastgoxi uchun :  $V_{qir} = 1,4$  dan  $2,0 [sm]$  ga teng.

2. Tanda iplari soni.

A) To'qima iplari o'rtasi bo'yicha

$$n_{o'r} = B_{o'r} \times R_{o'r} [ip] = 165,46 \times 21,2 = 3507,752 = 3508$$

B) To'qima iplari qirgoq bo'yicha

$$n_{qir} = V_{qir} \times P_{qir} [ip] = 2 \times 21,2 = 42,4 = 43$$

V) Umumiy tanda iplari soni

$$n_t = n_{o'r} + n_{qir} [ip] = 3508 + 43 = 3551$$

3. Tig' xisobi

A) Tig' nomerini aniqlash.

$$N_{\sigma} = \frac{P_T \times (1 - 0,01 \times a_n)}{Z_{o'r}} [tish./sm] = \frac{21,2(1 - 0,01 * 5,7)}{2} = 99,958 = 100$$

$Z_{o'r}$  – to'qima urtasi iplarini tigdan o'tish soni

$a_n$  – to'qimada arqoq ipi kirishishi %

$N_b$  – GOST bo'yicha eng yaqini tanlab olinsin

b) Tig' tishlari soni

$$X = \frac{n_{o'r}}{Z_{o'r}} + \frac{n_{qir}}{Z_{qir}} + X_{zax} [don a] = \frac{3508}{2} + \frac{43}{2} + 0 = 1754 + 21,5 = 1775,5 = 1778$$

$Z_{qir}$  – tig'dan kirgok iplarini o'tkazish soni

$X_{zax}$  – zoxiradagi tig' tishlari

Mokili dastgoxlar uchun  $X_{zax} = 4 - 12$ , mokisiz to'quv dastgoxlarida zoxira tishlar olinmaydi.

4. Shoda xisobi.

Shodalar soni to'qima o'rilishiga, tanda iplari zichligiga va ularni o'tkazish usuliga qarab qabul qilinadi.

Katorli va sochma o'tkazish usullarida shoda xisobi quyidagicha:

A). O'rta iplari uchun shoda gulalari soni.

$$\Gamma_{o'r.} = \frac{n_{o'r.}}{n_{shoda\ o'r.}} [gula] = \frac{3508}{5} = 701,6 = 702$$

B). Qirgog iplari uchun shoda gulalari soni.

$$\Gamma_{qir.} = \frac{n_{shoda\ qir.}}{n_{shoda\ o'r.}} [gula] = \frac{43}{2} = 21,5 = 22$$

V) Xamma shodadagi gulalar soni

$$\Gamma_{xyu} = \Gamma_{o'r.} * \Pi_{shoda\ o'r.} + \Gamma_{qir.} * \Pi_{shoda\ qir.} + \Gamma_{qo'sh.} [gula] = 702 * 5 + 22 * 2 + 10 = 3564$$

$G_{kush}$  – zoxira gulalar soni (xar bir shoda uchun 2 tadan 4 tagacha)

G). shoda kengligi

$$B_{shoda} = B_{t.b.} + (1/2sm) = 175,401 + 1,539 = 177$$

$B_{shoda}$  – butun son kurinishida olinsin

$$P_r = \frac{\Gamma_{o'r.}}{B_{shoda}} [gula / sm] = \frac{702}{177} = 3,966$$

D). Shodadagi gulalar zichligi gula zichligi ruxsat etilgan gula zichligiga teng yoki undan kichik bulishi shart, ya`ni  $R_r < [P_r]$ . Ruxsat etilgan gula zichligi tandan ipini chizikli zichligiga asosan kuyidagi jadvalda berilgan.

$$3,966 < [8 - 10]$$

5. Tanda kuzatgich xisobi.

A) Lamel soni tanda iplari soniga teng.

$$n_L = n_T (lamel) = 3551$$

B) Lamel zichligi

$$P_n = \frac{n_1}{M_{reyke} \times (B_{shoda} + 1)} [10m / sm] = \frac{3551}{4 * (177 + 1)} = 4,987$$

$M_{reyk} = 2-6$  gacha – lamel reykalari soni

Lamel zichligi ruxsat etilgan zichlikdan kichik yoki unga teng bo'lishi shart, ya`ni; lamelarlar zichligi lamel zichligi ruxsat etilgan lamel zichligiga teng yoki undan kichik bulishi shart, ya`ni  $R_l < [P_l]$ . Ruxsat etilgan gula zichligi tandan ipini chizikli zichligiga asosan kuyidagi jadvalda berilgan.

$$4,987 < [8 - 10]$$

6. 100 metr xom to'qima to'qish uchun sarflanadigan ip og'irligi.

A) 100 metr xos to'qima to'qish uchun to'qimani urtasiga sarflanadigan tandan iplari og'irligi.

$$M_{o'r} = \frac{\Pi_{o'r} * T_{o'r} * (1 - 0,01 * B\%)}{10^6 * (1 - 0,01 * a_t)} * 100 [\text{kg}] = \frac{3508 * (15,4 * 2) * (1 - 0,01 * 0,4)}{10^6 * (1 - 0,01 * 9,1)} * 100 = 11,838$$

b) 100 metr xom to'qima to'qish uchun to'qimani kirgogiga sarflanadigan tandan iplari og'irligi.

$$M_{qir} = \frac{\Pi_{qir} * T_{qir} * (1 - 0,01 * B\%)}{10^6 * (1 - 0,01 * a_t)} * 100 = \frac{43 * (15,4 * 2) * (1 - 0,01 * 0,4)}{10^6 * (1 - 0,01 * 9,1)} * 100 = 0,145$$

Yuqoridagilarni xisoblashda oxorlash jarayonidagi tanda uzayishi B% xisobiga olinadi, B % ni miqdori turli iplari uchun quyidagicha:

Eshilmagan (bittali) paxta tolalari uchun – 0.7 % (1 %)

Eshilgan (ikkilangan) paxta tolalari uchun- 0,4 %

v) Agar tanda oxorlansa, u xolda koldik oxor miqdorini xisobga olib tanda og'irligi xisoblanadi.

Koldik oxor miqdori

$$\Pi_{\kappa} = 2/3 * \Pi_x [\%] = \frac{2}{3} * 4,5 = 3$$

$P_x$  – xaqiqiy oxor miqdori % da

$$M_t = (M_{o'r} + M_{qir}) * (1 + 0,01 * \Pi_{\kappa}) [\text{kg}] = (11,838 + 0,145) * (1 + 0,01 * 3) = 12,348$$

g) 100 metr xom to'qima uchun sarflanadigan arqoq ipi og'irligi, kg.

$$M_{arq} = \frac{P_{arq} * 10 * T_{arq} * L_{arq}}{10^6} * 100 [\text{kg}] = \frac{172 * 10 * 36 * 1,774}{10^6} * 100 = 11,988$$

$L_{arq}$  – arqoqni xomuzadagi uzunligi, m da,

$$L_{arq} = B_{t,b} + B_{\kappa} [m] = 175,465 + 2,0 = 177,465 = 1,774$$

7. 1 metr xom to'qima og'irligi, kg

$$M_M = \frac{M_t + M_{arq}}{100} [\text{kg}] = \frac{12,348 + 11,988}{100} = 0,243$$

8. 1 metr kvadrat xom to'qima og'irligi

$$M_m^2 = \frac{M_t + M_{arq}}{B_x * 100} [\text{kg} / m^2] = \frac{12,348 + 11,988}{1,654 * 100} = 0,147$$

9. To'qimani tola materiallar bilan koplanishi, % da.

A) Tanda buyicha

$$E_t = P_t * d_t * 100[\%] = 2,12 * 0,217 * 100 = 46,004$$

B) Arqoq buyicha

$$E_{arq.} = P_{arq.} * d_{arq.} * 100[\%] = 1,72 * 0,237 * 100 = 40,764$$

V) To'qimani tashki koplanishi

$$E_{to'q} = E_t + E_{arq.} - \frac{E_t * E_{arq.}}{100} [\%] = 46,004 + 40,764 - \frac{46,004 * 40,764}{100} = 68,015$$

To'qimani taxtlash xisobini jamlash jadvali.

№	Ko'rsatkichlar nomi		Shartli belgi	O'lchov birligi	Art
1.	To'qimani bog'lanish koeffitsienti		S	-	4,483
2.	O'rilish koeffitsienti		F	-	2,7
3.	To'qimani to'ldirilish koeffitsienti		$K_{to'q}$	-	12,135
4.	To'qimani tanda iplari bilan to'ldirilishi		$K_{tan.}$	-	7,575
5.	To'qimani arqoq iplari bilan to'ldirilishi		$K_{arq.}$	-	1,602
6.	To'qimadagi iplarning o'rtacha chiziqli zichligi		$T_{o'r.}$	teks	33,2
7.	To'quv dastgoxi rusumi				
8.	To'qima kengligi	Tayyor to'qima	$B_m$	sm	160
9.		Xom to'qima	$B_x$	sm	165,46
10.		To'qima o'rtasi	$B_{\check{y}p}$	sm	163,46
11.		To'qima milki	$B_m$	sm	2,0
12.	Tanda iplarini tig' bo'yicha taxtlash kengligi		$B_{t.tig'}$	sm	175,461
13.	To'qima uchun tanda iplar soni		$n_t.$	dona	3508
14.	To'qima uchun qirg'og' iplar soni		$n_{qir.}$	dona	43
15.	Umumiy tanda iplari soni		$n_{t.t.}$	dona	3551
16.	Tig' nomeri		$N_{tig'}$		100
17.	Tig' tishlari soni		X	dona	1778
18.	Shodalar soni		$n_{shoda}$	dona	5
19.	Shodadagi gulalar soni		$\Gamma_{um.}$	dona	3564
20.	Tanda kuzatkichlar soni		$n_{t.k.}$	dona	3551
21.	Tanda kuzatkichlar zichligi		$P_{t.k.}$	t.k./sm	4,9
22.	100 m xom to'qima uchun ip sarfi:			kg	12,348

	a) tanda iplari uchun b) arqoq iplari uchun	$M_{t.t.}$ $M_{arq.}$		11,988
23.	1 m xom to'qima og'irligi	$M_{pog.m.}$	g	0,243
24.	1m <sup>2</sup> xom to'qima og'irligi	$M_m^2$	g	0,147
25.	To'qima yuzasini tolali materiallar bilan qoplanishi:	$E_{to'q}$	%	68,015
	a) Tanda bo'yicha	$E_t$		46,004
	b) Arqoq bo'yicha	$E_a$		40,764

### **5.To'quv korxonasini texnologik jarayon va uskunalarni tanlash va asoslash.**

Korxonasining texnologik jarayoni loyixalashda yuqori tezlikda ishlaydigan, sifatli maxsulot ishlab chiqaradigan bo'lishi kerak. Mashina va dastgoxlarni tanlashda asosan foydalaniladigan ipning tolaviy tarkibi, chiziqli zichligi, ishlab chiqariladigan mato turi va ishlatish maqsadi va uning xossalari asosida tanlanadi.

Tanlangan texnologik jarayon quyidagi texnologik shartlarni bajarishi kerak:


- Tanlangan jixozlar zamonaviy talablarga to'liq javob berishi;
- Yuqori sifatli to'qima ishlab chiqarish;
- Yuqori mexnat va mashina unumdorligi;
- Xom ashyodan unumli foydalanish;
- O'timlar soni kamroq bo'lishi;
- Loyixalanayotgan korxonada o'zini qoplash muddati 2-3 yildan oshmasligi kerak.

Yuqorida ko'rsatilganlarni amalga oshirish uchun yuqori samarali dastgox va mashinalarni tanlash, fan va texnika yutuqlarini qo'llash eng asosiy vazifa xisoblanadi.

To'quv ishlab chiqarish jarayonlari texnologik zanjirini tanlashda asosan to'quv dastgoxi turi, ip va to'qima tarkibi, tuzilishi, to'qima eni va kelayotgan o'ram ko'rinishi xisobga olinadi.

To'quvchilik jarayoni uchun xom ashyo – ip turiga qarab, yigiruv korxonalarini yoki kimyo zavodlaridan, ipakchilik korxonalaridan olib kelinadi.

## To'quv korxonasini texnologik jarayoni.



### Tandalash mashinasi va romini tanlash va izoxlash

Tandalash jarayoni izoxlash xisob bilan belgilangan tanda iplari bir xil uzunlikda va ma'lum taranglikda bitta o'rama jamlab olishdan iborat. Tandalash mashinalar tandalash usullariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Biz loyixa qilayotgan tandalash texnologik jarayon uchun guruxlab tandalash mashinalari qo'llanadi.

Loyixada qabul qilingan boshqa guruxlab tandalash mashinalaridan ip tanda tezligining yuqoriligi bilan farq qiladi.

Iplarni tandalashdan maqsad - ma'lum uzunlikdagi xisob bilan aniqlangan iplar sonini jamlab bitta o'rama, tandalash g'altagi yoki to'quv g'altagiga o'zaro parallel qilib o'rashdan iborat.

Tandalash jarayonida to'qimaning tandasi shakllanadi. Texnologik nuqtai nazardan tandalash jarayoni muxim va ma'suliyatli bo'lib, unda bir paytning o'zida bir necha yuz iplardan bitta o'rama olinadi.

Guruxlab tandalashda tandadagi jami iplar bir gurux tanda g'altaklariga teng taqsimlanib ma'lum uzunlikda tanda g'altagiga o'raladi. So'ngra tanda g'altaklaridan tuzilgan gurux oxorlash mashinalariga keltiriladi. Xar bir tanda g'altagidagi iplar uzunligi bir nechta to'quv g'altagidagi iplarning uzunligiga teng bo'ladi.

Sanoatda Rossiyaning SP-140, SP-180, Shvetsariyaning ZS-R, Ben-DIREKT "Beninger" firmasi, AKShning DW, Chexiyaning Kovo kabi guruxlab tandalash mashinalari keng tarqalgan. Bitiruv malaka ishimizda Shveysariyaning "Beninger" rusumli guruxlab tandalash mashinasini qabul qildik. Bu mashinalar o'zining yuqori enda (2200-4200) sifatli tanda g'altaklarini tayyorlashi bilan birga tandalash tezligi tandalanayotgan ipning chiziqli zichligiga mos ravishda o'zgartirish oralig'ining kengligi bilan xam ajralib turadi. Bu mashinalarga mos ravishda tanda romlari qabul qilindi va texnik ko'rsatkichlari keltirildi.

### **Guruxlab tandalash mashinalarining texnik ko'rsatkichlari**

Ben-DIREKT "Beninger" firmasi tandalash mashinasining texnik xarakteristikasi.

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	Mashinani ishchi kengligi	Mm	1200-2200
2	tandalashning chiziqliy tezligi	m/min	Maks.800
	To'quv g'altagidagi o'rash tezligi	m/min.	50-1200
	Tanda ipining tarangligi	N	200-4550
3	To'quv g'altagi gardishi diametri	Mm	1000,
4	Elektrodvigatel quvvati	KVT	6,2
5	Gabarit o'lchamlari:		
	Kengligi	Mm	1775
	Chuqurligi	Mm	1710+1
	Balandligi	Mm	2325

6	Og'irligi	Kg	1300
7	Davra g'altagiga o'ralayotgan ipni o'ram zichligi	Gr/sm <sup>3</sup>	0,52

Tandalash ko'rsatkichlari.

No	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	Tandalanayotgan ipni chiziqliy zichligi	Teks	15,4x2
2	Tandala tezligi	m/min	300
3	Tandalashda ipni uzilishi	Uz.	3
4	O'ramning nisbiy zichligi	Gr/sm <sup>3</sup>	0,5
5	Davra ramkasi sig'imi	Dona	616
6	Davra g'altagidagi ipning uzunligi	m	19212,1
7	Davra g'altagidagi ipning xajmi	Sm <sup>3</sup>	750075
8	Davra g'altagidagi ipning og'irligi	Kg.	349,7
9	Davra g'altagidagi ipning maksimal uzunligi	M	22663,6
10	Davra g'altagidagi ip soni	Dona	3551
11	Babinadagi ip og'irligi	Gr.	1402
12	Babinadagi ip uzunligi	M.	45527,2

Ben-KRIL "Beninger" firmasi Tanda mashinasi ramkasi texnik xarakteristikasi.

No	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	O'rnatilgan ip o'ramlari soni: Ishchi Qo'shimcha	Dona	480
2	Davra ramkasiga o'rnatiladigan ip o'lchamlari: O'ramning eng katta diametri O'ram balandligi O'ramning kichik diametri	Mm Mm Mm	255 150 170
3	Gabarit o'lchamlari: Uzunligi Kengligi	Mm Mm	11280 4240

**Oxorlash mashinasini tanlash va izoxlash**

Oxorlash bo'limida oxor tayyorlash va oxorlash uskunalari bo'lishi lozim. Oxorlash jarayonida tanda iplarini ustki qismini silliqlash pishiqligini oshirish va iplarni uzulishini kamaytirish maqsadida oxor(elim)lanadi.

Tanda iplari davra g'altigidan yechilib, elim vanasida yelimlanadi, maxsus valiklar yordamida siqilib, quritish zonasida, quritish barabanlari yordamida quritiladi va to'quv g'altigiga o'raladi.

Xozirgi vaqtda korxonalarda MShB-9-140, MShB-11-140 va MShB-9-180, MShB-11-180 turdagi oxorlash mashinalari qullaniladi.

Oxorlash mashinasini tanlash to'quv g'altigidagi iplarni soniga, xom to'qimani kengligiga, ipni chiziqliy zichligiga bog'liq bo'ladi.

Bu ko'rsatkichlarni xisobga olgan holda berilgan ipni oxorlash uchun Ben-FILATEK "Beninger" firmasini oxorlash mashinasini qabul qilindi.

### **Oxorlash mashinasining texnik ko'rsatkichlari**

Ben-FILATEK "Beninger" firmasi oxorlash mashinasining texnik ta'rifi.

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	Taxtlash kenglishi	Mm	1400
2	Tanda iplarini xarakat tezligi	m/min	30-150
3	Tanda ipni taxtlash uzunligi Mashinada tirgaksiz Quritish oralig'ida	M	33
		M	18
4	Vanadagi oxor miqdori	Litr	700
5	Oxormaterialaning issiqlik darajasi	S°	90
6	Mashinaning bo'g'lanish qobiliyati	Kg. Soat	300-450
7	Mashinaning o'lchamlari:		
	Kengligi	Mm	3100
	Tirgagni xisobga olgan uzunligi	Mm	18135
	Balandligi	Mm	19000
	Tirgagni xisobga olmagan uzunligi	Mm	19720
8	Mashinaning og'irligi	Kg	18260
9	Elektrodvigatel quvvati	KVT	20,5
10	To'quv g'altigiga tandani o'rash zichligi	Gr.sm <sup>3</sup>	0,5

### **Oxorlash jarayoni ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	Oxorlanayotgan ipni yo'g'onligi	Teks	15,4x2
2	Oxorlashning yuqori tezligi	M.min	150
3	Oxorlashda tandani cho'zilishi	%	1
4	Oxorlanayotgan iplar soni	Dona	3551

5	To'quv g'altagidagi ipni og'irligi	Kg	411,1
6	Gruxdagi tanda g'altaklar soni	Dona	6
7	Bitta guruxdan olinayotgan tuquv g'altaklar soni	Dona	5
8	O'rtacha tezligi	M.min	87,07
9	To'quv g'altagi o'rami nisbiy zichligi	Gr.sm <sup>3</sup>	0,5

Oxorlrsh mashinasining yuqori tezligi.

$$U_{mak} = \frac{Q * 10^6}{a * n_T * T_T * 60} = \frac{400 * 10^6}{0,7 * 3551 * (15,4 * 2) * 60} = 87,078 \text{ m/min}$$

Q-mashinani bug'lanish qobiliyati. (300-450 kg.)

a- tanda ipi namligini xisobga oluvchi koeffitsient, q0,8

$$a = \frac{W_1 - W_2}{100} = \left[ \frac{kg}{soat} \right] \quad a = \frac{80 - 10}{100} = 0,7 \left[ \frac{kg}{soat} \right]$$

W<sub>1</sub> – tanda ipini siqishdan keyingi namligi.(80-90)

W<sub>2</sub> – tanda ipini quritishdan keyingi namligi.(10-12)

n<sub>T</sub>—tanda iplarini umumiy soni

T<sub>T</sub>-tanda ipi chizikli zichligi (teks)

### Ulash mashinalari tanlash va izoxlash

Ulash yoki o'tkazish texnologik jarayoni oxorlash jarayonidan chiqqan to'quv g'altagidagi tanda iplarini to'quv dastgoxiga taxtlash bo'lib, bu jarayonlar xam boshqa texnologik jarayonlar kabi o'ta ma'suliyatli xisoblanadi. Bu jarayonlarda qilingan xato va kamchiliklar jarayon tugab, to'quvchilik jarayoni boshlanganda, ya'ni to'qima shakllanayotgan vaqtda uning sirtida o'z aksini topadi. Shuning uchun bu jarayonda ishlatiladigan mashina va dastgoxlar, ularga xizmat ko'rsatadigan ishchilar yuqori malaka va tajribaga ega bo'lishilari talab etiladi.

Ip ulash-to'quv g'altagidagiga maxsulot ip tugasa yangi ipga ulash jarayoniga aytiladi.

Germaniyanng AWA-2 mashinasi xamma turdagi iplarni bog'lash imkoniyatiga ega bo'lib, 2÷200 teksli iplarni xech qanday sozlashsiz bog'laydi. Bunday mashinalar statsionar va qo'zg'aluvchan bo'lishi mumkin.

Ip bog'lash tezligini zamonaviy ip bog'lash mashinalarida 400-500 iplarni minutiga bog'lab ishlatish mumkin. Mashina igna yoki toqavay usulida iplarni ajratishi mumkin.

Iplarni jixozlashdan o'tkazilmaydigan xollarda tugayotgan iplarning oxirgi uchlari bilan yangi olib kelingan tanda iplarining uchi bog'lanadi. Ip bog'lash mashinalari qo'zg'almas bir joyda o'rnatilgan, xarakatlanuvchi va unversal turlari mavjud. Men loyixada Staubli Delta 200, Staubli Tomatik (Shvettsiya) ip bog'lash mashinasini kabul qilindi.

### Ulash jarayoni ko'rsatkichlari.

Tomatik ulash mashinasining texnik ta rifi.

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'dchov birligi	qiymati
1	Mashinani ishsi kengligi	Mm	1750
2	Ulash tezligi	Ul.min.	500
3	Ulanadigan tanda iplari chiziqiy zichligi	Teks	8,5-500
4	Istemol qilinadigan elektr energiya	Vt.soat	10
5	Gabarit o'lchamlari: Uzunligi Balandligi	Mm Mm	500 800-1210
6	Og'irligi karetk bilan	Kg	335
7	Og'irligi karetkasiz	Kg	16
8	Elektrodaigatel quvvati	KVT	0,1

Ulash jarayoni ko'rsatkichlari.

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'dchov birligi	qiymati
1	O'lanayotgan ipni chiziqiy zichligi	Teks	15,4x2
2	Ulash tezligi	Ul.min	600
3	Tanda iplarining umumiy soni	Dona	3551
4	O'rta iplar soni	Dona	3508
5	Qirg'oq iplari soni	Dona	43
6	To'qimani tig' bo'yicha taxtlash kengligi	Sm	175,4
7	To'qimani o'rtasi kengligi	Sm	163,4
8	To'qima qirg'og'i kengligi	Sm	2,0
9	Hom to'qima kengligi	Sm	165,4

### **O'tkazish jarayonini tanlash va izoxlash.**

O'tkazish bu tuquv dastgoxining yechiluvchi qismlaridan (tanda kuzatgich gula va tig'lardan) tanda iplarini belgilangan ketma ketlikda olib o'tishda aytiladi. PSM markali mexanizatsiyalashgan o'tkazish dastgoxi taxtlash kengligi bo'yicha farq qiluvchi 4 xil PSM- 140,PSM -175,PSM- 230 va

PSM- 250 kabi turidagilar mavjud. PS, PSM rusumidagi o'tkazish dastgoxlarida ikkita ishchi ishlaydi, biri uzatuvchi, biri o'tkazuvchi vazifasini bajaradi.

Sanoatda Rossiyaning PS, PSM rusumidagi, AQShning Barber-Kolman, Staubli Delta 200, Staubli Warplink kabi o'tkazish dastgox va avtomatlari mavjud.

Bu dastgoxda tanda iplarini gula va tig'lardan xatosiz o'tkazishni ta minlaydi. O'tkazish jarayonini amalga oshirish uchun to'qimani to'qishga Warplink mexanizatsiyalashgan o'tkazish dastgoxini tanladim.

#### **Warplink o'tkazish dastgoxini texnik xarakteristikasi**

	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	Eng katta taxtlash mumkin bo'lgan ishchi kenglik	mm	1750
2	O'rnatilishi mumkin bo'lgan eng eng ko'p shodalar soni	Dona	12
3	Eng ko'p o'rnatilishi mumkin bo'lgan tanda kursatkichlar soni	Dona	2-6
4	1minutdagi shodalar khrsatkichlar soni	shoda/min	11-12
5	Dastgox o'lchamlari: Kenglig Uzunligi Balandligi Og'irligi	mm  Kg	1600 2020 1780

### **To'quv dastgoxlarini tanlash va izoxlash.**

Pnevmatik to'quv dastgoxda arqoq ipi xavo bosimi yordamida yuboriladi. Bunday dastgoxlar asosan Bel giya, Germaniya, Chexiya, Yaponiya, Gollandiya va Hvettsiyalarda va ishlab chiqariladi.

Italiyani Wamatex rusumli dastgohi ham elastik rapira yordamida arqoq ipini homuzaga tashlaydi. Karetkali va jakkard homuza xosil qilish mexanizmlari bilan jihozlanish imkoniyatiga ega. Tanda iplarini taranglab uzatish mexanizmi Xanta rostlagishidir.

WAMATEX to'quv dastgoxni texnik tavsifi.

<b>№</b>	<b>Ta`rif elementlari</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Ta`rif ko'rsatkichi</b>
1	Ishchi eni.	mm	1900
2	Bosh valning aylanish soni	min <sup>-1</sup>	300-400
3	To'qimani arqoq bo'yicha zichligi,	ip/sm.	2-200
4	To'quv g'altagi o'lchami Gardish diametri O'zak diametri	Mm	800-1000 150
5	To'quv valigi diametri	Mm	76
6	To'qima o'rami diametri	Mm	720
7	Shodalar soni O'rtadagi iplar uchun Milk iplari uchun	dona	10-14
8	Gabarit o'lchami Uzunligi Kengligi Balandligi	Mm	4613 2009 1400
9	Elektr yuritgich quvvati	kVt	5,5

Jarayon ko'rsatkichlari.

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkich nomi</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Art.</b>
1	Ishchi eni.	mm	1900
2	Bosh valning aylanish soni	min <sup>-1</sup>	400
2	Ip chizikli zichligi	Teks	15,4x2
3	O'ram zichligi	Gr/sm <sup>3</sup>	0,5
4	Tanda iplarining umumiy soni	Dona	3551
5	O'rta iplar soni	Dona	3508
6	qirg'oq iplari soni	Dona	43
7	To'qimani tig' bo'yicha taxtlash kengligi	sm.	175,4
8	To'qimani o'rtasi kengligi	sm.	163,4
9	To'qima qirg'og'i kengligi	sm.	2,0
10	xom to'qima kengligi	sm.	165,4

### **To'qimani saralash, o'lchash va tozalash mashinalarini tanlash va izoxlash.**

To'quv dastgoxlarida to'qilgan xom to'qima xisoblash-navlarga ajratish bo'limiga yuboriladi. Bu yerda u navlarga ajratiladi, o'lchanadi, tozalanadi va pardoqlash bo'limiga jo'natish uchun tayyorlanadi. Xom ip to'qimasining sifati (navi) davlat standartlari asosida tekshiriladi va baxolanadi.

To'qimalar sifati ularning fizik-mexanik xossalari normalarga mos kelishiga va tashqi ko'rinishidagi nuqsonlarga qarab baxolanadi. Bunda to'qimalarning ikki navi (birinchi va ikkinchi) belgilanadi.

